

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti rektori  
X.B.Yunusov

2024-yil “02” 08

ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA VETERINARIYA  
SANITARIYA TADBIRLARI

FANINING O'QUV DASTURI

<b>Bilim sohasi:</b>	800000	- Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
<b>Ta'lim sohasi:</b>	840000	- Veterinariya
<b>Mutaxassislik:</b>	70840109	- Asalari kasalliklari

Samarqand 2024

Fan /modul kodi AXVST 1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS-Kreditlar 6	
Fan /modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari	90	90	180	
2.	I. Fanning mazmuni				
	<p>Ushbu dasturda asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlarini o'tkazishning mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, Respublikamizda veterinariya sanitariya tadbirlarining tashkiliy asoslari, veterinarlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablarga keng o'rin ajratilgan. "Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" fani dasturi magistrlar uchun zarur bo'lgan yuqumli va invazion kasalliklarining, shu jumladan antropazonoz kasalliklarning profilaktikasi, yuqori sifatli asalarichilik mansub mahsulotlar, xom ashyo va ozuqalar olish yo'llari va barcha tekshirish uslublarini mujassamlashtirgan. Fanning tarixi va rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning natijalari dasturda o'z o'rnini topgan.</p> <p>Fanning vazifasi – asalarilarning yuqumli va invazion kasalliklarining oldini olish va tashqi muhitda kasalliklar qo'zg'atuvchilarining o'choqlarini tugatish;</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- xo'jalikda yuqori sanitariya – sifatiga ega bo'lgan asalarichilik mahsulotlarini olinishiga barqarorlikni ta'minlash;</li><li>- tabiatda patogen, shartli patogen mikroflora va kimyoviy vositalar to'planishidan himoya qilishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish;</li><li>- asalarichilik xo'jaliklarida, shaxsiy asalarichilik tarmoqlarida asalni qayta ishlash, xom ashyo korxonalari dezinfeksiya yuvish stansiyalari va punktlarini, binolarini loyihalashtirish va qurilishini amalga oshirish bo'yicha veterinariya – sanitariya talablarini ishlab chiqish.</li><li>- fan bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.</li></ul>				
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				
	II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
	1-mavzu. Asalarilarning infeksiyon va invazion kasalliklari, ulardan keladigan iqtisodiy zarar.				
	<p>Infeksiyon va invazion kasalliklarning manbalari, asalarichilik xo'jaliklarida ularning tarqalish yo'llari. Infeksiyon kasalliklar qo'zg'atuvchilarining fizik va kimyoviy omillariga chidamliligi.</p>				
	2-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklari veterinariya-sanitariya qoidalari.				
	<p>Asalarichilik xo'jaliklari tashkil qilishda veterinariya-sanitariya talablari. Asalarichilik xo'jaliklarida ishlashda veterinariya – sanitariya qoidalari. Asalari</p>				



parvarishida veterinariya-sanitariya qoidolari.

**3-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklarida asalari kasalliklariga qarshi kurash tadbirlarini tashkillashtirish.**

Asalarilarning invazion va infeksiyon kasalliklariga qarshi profilaktik ishlarni rejalashtirish. Joriy va rejali dezinfeksiya ishlarni o'tkazish. Asalarichilik xo'jaliklarini pasportlashtirish.

**4-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklarini dezinfeksiyalash turlari va usullari.**

Profilaktik dezinfeksiya. Majburiy dezinfeksiya. Yuqumli kasalliklarda dezinfeksiyalash. Asalarilarning nozematoz kasalligida dezinfeksiyalash usullari.

**5-mavzu. Asalarilarning invazion kasalliklarida davolash va veterinariya-sanitariya tadbirlari.**

Braulyoz kasalligida o'tkaziladigan maxsus profilaktik tadbirlar. Asalari uylarida davolash ishlarini olib borish. Varroatoz kasalligida o'tkaziladigan maxsus profilaktik tadbirlar.

**6-mavzu. Asalarichilikda foydalaniladigan apparatura, transport vositalari va ularaga qo'yilgan veterinariya-sanitariya talablari.**

Asalari xo'jaliklarida qo'llaniladigan texnik vositalar. Asalarichilik xo'jaliklarida foydalaniladigan maxsus transportlarga qo'yiladigan sanitariya talablari.

**7-mavzu. Asal, asalari mahsulotlari va mumni yig'ish, qayta ishlash, saqlashga qo'yilgan veterinariya-sanitariya talablari.**

Asalga qo'yilgan veterinariya-sanitariya tadbirlari. Asalari mahsulotlari (suti, zaxri va b.) olish saqlashda veterinariya sanitariya talablari, mum yig'ish, saqlash va qayta ishlashda veterinariya-sanitariya talablari.

**8-mavzu. Asal va asalari mahsulotlarini tovarlik qiymatini aniqlashda qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari.**

Asalning tovarlik xossalari va ularning me'yorlari. Asal va asal mahsulotlariga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablar va laborator tekshirish qoidolari majmui.

**9-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklarida kemiruvchilarga qarshi kurash tadbirlari.**

Kemiruvchilar, sichqonlar va kalamushlarga qarshi kurash chora-tadbirlarini rejalashtirish. Kemiruvchilarga qarshi zaxarli xo'raklash tayyorlash va ishlatish qoidolari.

**10-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklarida karantin, cheklov qo'yish qoidolari.**

Karantin qo'yish qoidolari va unga rioya qilish tartiblari. Cheklov qoidolari

va unga rioya qilish tartiblari.

**11-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklaridagi asalari uyalarini dezinfektsiyasi**  
Dezinfektsiya ta'limotining mohiyati. Dezinfektsiya (zararsizlantirish)ni yuqumsizlashtirishdan va sterillashdan farqlash.

Dezinfektsiya o'tkazish uchun dastlabki tayyorgarlik bosqichi hisoblangan mexanik tozalashning ahamiyati. Dezinfektsiya vositalarini eritmalar yoki aerozollar holatida qo'llashning afzalliklari.

Profilaktik dezinfektsiyani o'tkazish tartibi va muddatlari. Majburiy dezinfektsiyaning turlari, o'tkazish tartibi va muddatlari.

Dezinfektsiya sifatini baholash.

**12-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklarida ishlatiladigan veterinariya - sanitariya texnikalari.**

Dezinfektsion texnikalarga qo'yiladigan eng asosiy talablar.

Aerazol yo'li bilan dezinfektsiyalash uchun maxsus dezinfektsiya mashinalari va apparatlarining ishlash prinsipi va qo'llanilishi. Maxsus avtomashinalar yordamida otkaziladigan tadbirlarning turlari va ular bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.

**13-mavzu. Asalarichilik xo'jaliklarini zararsizlantirish uchun dezindeksiyalovchi vositalar.**

Tashqi muhitning sanatsiya qilishda kimyoviy, fizik va biologik dezinfektsiya vositalarining qo'llanilishi.

Kimyoviy dezinfektsiya vositalar: ishqorlar, kislotalar, xlorfaol preparatlar va boshqa guruhlarining mikroorganizmlar xujayrasiga ta'siri, bakterisid va bakteriostatik ta'sirlarni ahamiyati.

Kimyoviy vositalar eritmalarining konsentratsiyasi, harorati va ekspozitsiyasi vaqtining ularning kuchiga ta'siri, kimyoviy dezenfektsiya vositalari ta'sirida mikrob xujayrasida kechadigan jarayonlarni tushunishni nazariy va amaliy ahamiyati.

Dezinfektsiya vositalariga qo'yiladigan talablar, fizik va biologik dezinfektsiyalashning ahamiyati

**14-mavzu. Asalari kanalariga qarshi veterinariya -sanitariya chora tadbirlari.**

Kana tomonidan tarqatiladigan yuqumli va invazion kasalliklar hamda bu kanalarga qarshi kurashish usullari, qo'llaniladigan dezinfektsiya vositalari.

**15-mavzu. Asalarichilikka mansub xom ashyolarni olish va qayta ishlashning veterinariya - sanitariyasi**

Asalarichilikka mansub xom ashyoni qayta ishlash sanoatida veterinariya - sanitariya xizmati ko'rsatish va nazoratining ob'ektlari.

Asalarichilikka mansub xom ashyoni tayyorlash, saqlanishi, transportda tashish va ishlov berishni tashkil etish.

**SamDVMCHBU "Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari" kafedrasidotsenti, vet.f.n. Sh.N.Nasimov tomonidan "Asalarichilikxo'jaliklaridaveterinariyasantariya tadbirlari" fanidan tayyorlangan fan dasturiga**

**TAQRIZ**


Ushbu fan dasturi 70840109- Asalari kasalliklari mutaxassisligi magistrleri uchun "Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" fanidan ishlab chiqilgan dasturda asalarichilik xo'jaliklarining sanitariya talablari, asalarirada uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklar, ularni oldini olish choralari haqida keng ma'lumot va mavzular belgilangan.

Dastur tarkibida asalarichilik xo'jaliklarida sanitariya tadbirlarini bajarilishi asalari oilalaridagi olib boriladigan mavsumiy ishlar keng bayon etilgan. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kashiy ta'limdagi o'rni, asosiy qismlar, ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'limni olib borish haqida tavsiyalar, malakaviy amaliyotni o'tash uchun ko'rsatmalar, darslik va qo'shimcha qo'llanmalar adabiyotlarning ko'yxati ko'rsatilgan.

Fan dasturining asosiy qismida asalarichilik xo'jaliklarida sanitariya talab me'yorlarining qanchalik darajada bajarilishi, xo'jaliklarni sog'lomlashtirish chora-tadbirlari, amaliyot bilan integratsiyalashgan holda fanning nazariy mashg'ulotlar mazmuni to'liq bayon etilgan. Mamlakatimiz hududida asalari kasalliklarini kirib kelishini oldini olish, eksport-import qilnayotgan asalari mahsulotlarini va xom ashyolarini yuqumli kasalliklarga qarshi tekshiruvlarni o'tkazish, mahsulotlarga beriladigan xalqaro veterinariya sertifikatlarini tuzish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni o'rgnish hamda mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni bayon etilgan hamda mavzuning ketma-ketligiga, dolzarbligiga keng qamrovli bo'lishiga e'tibor berilgan.

70840109-Asalari kasalliklari mutaxassisligi magistrleri uchun "Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" faniga tayyorlangan fan dasturi ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Ushbu dastur "Ta'lim to'g'risida" gi qonun hamda " Kadrlar tayyorlash" milliy dasturni ijro etishga amaliy mos kelishini ta'kidlagan holda belgilangan talablarga javob beradi deb hisoblayman. tasdiqlash va chop etish uchun tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti direktor o'rinbosari, b.f.f.d.(PhD)





SamDU MCHBU "Parranda, baliq, asalari va mo'yнали hayvonlar kasalliklari"  
kafedrası dotsenti, vet.f.n. Sh.N.Nasimov tomonidan "Asalarichilik  
xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" fanidan tayyorlangan fan  
dasturiga

#### TAQRIZ



Ushbu fan dasturi 70840109- Asalari kasalliklari mutaxassisligi magistrleri uchun "Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" fanidan ishlab chiqilgan dastur tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni, asosiy qismlar, ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'limni olib borish haqida tavsiyalar, malakaviy amaliyotni o'tash uchun ko'rsatmalar, darslik va qo'shimcha qo'llanmalar adabiyotlarning ro'yxati ko'rsatilgan.

Fan dasturining asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlar mazmuni O'zbekiston Respublikasida veterinariya xizmatining tashkiliy tuzilishi, "Veterinariya to'g'risida"gi qonuni va veterinariya qonunchiligida belgilangan qonun hamda normativga mos tarzda ish yuritish, asalarilarning yuqumli kasalliklariga qarshi tekshirishlarni o'tkazish, yuqumli kasalliklarning boshqa Respublikalardan kirib kelishini oldini olish, eksport-import qilinayotgan asalari mahsulotlarini va xom ashyolarini yuqumli kasalliklarga qarshi tekshiruvlarni o'tkazish, mahsulotlarga beriladigan xalqaro veterinariya sertifikatlarini tuzish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni o'rgnishi hamda mustaqil ishini tashkil etishning shakli va mazmuni bayon etilgan hamda mavzuning ketma-ketligiga, dolzarbligiga keng qamrovli bo'lishiga e'tibor berilgan.

70840109-Asalari kasalliklari mutaxassisligi magistrleri uchun "Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari" faniga tayyorlangan fan dasturi ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Ushbu dastur "Ta'lim to'g'risida" gi qonun hamda " Kadrlar tayyorlash" milliy dasturni ijro etishiga amaliy mos kelishini ta'kidlagan holda belgilangan talablarga javob beradi deb hisoblayman, tasdiqlash va chop etish uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
"Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya"  
kafedrası dotsenti, b.f.n.

A.M. Vazidova



### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

#### III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Asalarilarning invazion kasalliklari va ularga qarshi kurash chora – tadbirlari.
2. Asalarilarning infksion kasalliklari va ulardan keladigan iqtisodiy zararni hisoblash usullari.
3. Asalarichilik xo'jaliklariga infeksiyaning kirish yo'llari.
4. Asalga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablar.
5. Asal mahsulotlariga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablar.
6. Kasal asalarilarni antibiotikka sezuvchanligini aniqlash uslublari.
7. Kimyoviy dezinfeksiyalovchi moddalar va ularning ta'sir mexanizmini o'rganish.
8. Dezinfeksiyalovchi vositalarning samaradorligini aniqlash usullari.
9. Mum va mum mahsulotlariga qo'yiladigan veterinariya- sanitariya talablar.
10. Asal va asal mahsulotlarini yig'ish, saqlash va tashishda veterinariya - sanitariya talablar.
11. Asal va asal mahsulotlarini tovarlik qiymatini aniqlash va baholash.
12. Joriy, profilaktik va majburiy dezinfeksiya o'tkazishda veterinariya sanitariya qoidalari.
13. Asalari xo'jaliklarida kemiruvchilarga qarshi kurash choralari.
14. Turli zaxarli xo'raklar tayyorlash va ulardan foydalanishda veterinariya sanitariya qoidalari.
15. Asalarichilik xo'jaliklarini zararsizlantirish uchun dezinfeksiyalovchi vositalar.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob uskunalar bilan jihozlangan auditoriyada bir guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekistonda asalarichilikni rivojlantirish borasidagi qabul qilingan qonun va qarorlar.
2. Asalarilarning yuqumsiz kasalliklari va undan keladigan iqtisodiy zararni hisoblash.
3. Asalarilarni saqlash va parvarishlashdagi buzilishlardan kelib chiqadigan kasalliklari.
4. Ayiqlar, qushlar va boshqa asalari kushandalariga qarshi kurash chora tadbirlari.
5. Asalarilarni turli kimyoviy birikmalardan zaxarlanish klinikasi, tashxis.

	<p>6. Suv havzalari yaqinida joylashgan asalarichilik xo'jaliklariga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablar.</p> <p>7. Asal tarkibini kimyoviy tekshirish.</p> <p>8. Asalari zaxrini olishda veterinariya-sanitariya talablar va undan farmasevtika sanoatida foydalanish ko'lami.</p> <p>9. Asalarilarning yuqumli kasalliklarida karantin qo'yish qoidalari.</p> <p>10. Asalari romlari va ularga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari.</p> <p>11. Asalarichilikda foydalaniladigan asbob-uskunalar.</p> <p>12. Mumning miqdoriy va sifat ko'rsatkichdagi me'yorlari.</p> <p>13. Asalarilarning XEB ning A guruhiga kiruvchi kasalliklari.</p> <p>14. Asalarilarning akarapidoz kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlari.</p> <p>15. Asalarilarning ektoparazitlariga qarshi kurash chora -tadbirlari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsia etiladi.</p>
3.	<p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Asalarichilikka mansub mahsulotlar va xom- ashyolarini eksporti va importida o'tkaziladigan veterinariya-sanitariya tadbirlarining me'yoriy asoslari, ular orqali kirib kelishi mumkin bo'lgan kasalliklar haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</b></li> <li>"Veterinariya to'g'risidagi" qonun va veterinariya qonunchiligini bilishi, Xalqaro epizootologik byuroning A va B- guruhdagi asalari kasalliklari va ularga diagnoz qo'yish usullarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</b></li> <li>Asalarichilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari, jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</b></li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>guruhlarda ishlash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>individual loyihalar;</li> <li>jamo bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p><b>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</b></p>

6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Sh.N.Nasimov., V.A.Gerasimchik., Z.B.Mamatova., F.A.Xabibov., "Asalari kasalliklari va zararkunadalar". o'quv qo'llanma. Toshkent 2021 yil.</li> <li>R.B. Davlatov., B.T.Norqobilov., Sh.X. Qurbonov., "Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodi". Darslik.T. "Navruz". 2019 yil.</li> <li>P.S. Haqberdiev., F.I. Qurbonov., U.Sh.Qarshiev. "Baliq va asalari kasalliklari" O'quv qo'llanma. T.2016 yil.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</li> <li>Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</li> <li>Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.</li> <li>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</li> <li>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</li> </ol> <p><b>Axborot manbaalari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>www.ziynet.uz.</li> <li>www.vetjurnal.uz</li> <li>www. lex.uz</li> <li>www.veterinariy.actavis</li> </ol>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2 "-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b></p> <p><b>Sh.N.Nasimov</b>– SamDVMCHBU, "Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari" kafedrasi dotsenti, v.f.n.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Otakulov B.N-</b> Sharof Rashidov nomidagi Samargand davlat universiteti Biokimyo instituti direktor o'rinbosari, b.f.f.d.(PhD).</p> <p><b>Vaxidova A.M.</b> - Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya" kafedrasi dotsenti, b.f.n.</p>